Qimmatli qog‘ozlar – ishonchli boshqarish shartnomasi obyekti

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 96-moddasi 1-qismiga ko‘ra, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo‘ladi.



2008-yil 22-iyulda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga asosan qimmatli qog‘ozlar – hujjatlar bo‘lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlar yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lash hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Ko‘rinib turibdiki, qimmatli qog‘ozlar xususiy alomatlarga ega bo‘lgan hamda mulkiy talablarni ifodalaydigan hujjat hisoblanadi.

Y. Nazarovning ta’kidlashicha, qimmatli qog‘ozlar o‘ziga xos yuridik kategoriya (unsur) bo‘lib, bir tomondan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim vazifani bajaradi, ikkinchi tomonidan esa huquqiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunda qimmatli qog‘ozlarning huquqiy tabiati bir tomonlama emas, unda bir vaqtning o‘zida mulkiy va majburiyat huquqi o‘z ifodasini topadi. Bu esa o‘z navbatida qimmatli qog‘ozlarni muomalaga kiritishni huquqiy tartibga solish bo‘yicha bir qator muammolarni vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va muomalaga kiritishni maqbul usulda tartibga solishga faqatgina qimmatli qog‘ozlar instituti ashyoviy huquq yoki majburiyat huquqi normalariga tegishli ekanini aniqlash orqali erishish mumkin[1].

A.Sergeyevning fikricha, qimmatli qog‘ozlarga ommaviy tasdiqlanganlik xususiyati xosdir. Uning mohiyati shundaki, qonunda qarzdor o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish asoslari doirasi qat’iy belgilangan. Xususan, barcha talablar asosida rasmiylashtirilgan qimmatli qog‘oz qarzdor majburiyatining vujudga kelish asosi mavjud emasligi yoki uning haqiqiy emasligiga ko‘ra rad etilishi mumkin emas. Faqatgina formal asoslar, ya’ni qimmatli qog‘ozni bajarishga taqdim etish muddatining o‘tkazib yuborilgani yoki qimmatli qog‘ozning soxta ekani bo‘yicha da’volashishga yo‘l qo‘yiladi, xolos. Qimmatli qog‘ozning egasi uning soxtaligini aniqlasa, qimmatli qog‘ozni o‘ziga bergan shaxsdan qimmatli qog‘oz bilan tasdiqlangan majburiyatni lozim darajada bajarish va yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqlidir[2].

Z. Amonovga ko‘ra, ma’lumki, qimmatli qog‘ozlarning asosiy maqsadi va vazifasi mulkiy huquqlarni tasdiqlash hisoblanadi. Ya’ni, bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan mulkiy talabi qimmatli qog‘oz deb ataluvchi hujjatda ifodalanadi va bu talab ana shu hujjatni saqlab turgan yoki hujjatda nomi yozilgan shaxsga tegishli bo‘ladi. Mulkiy huquq yoki mulkiy talab qimmatli qog‘ozni chiqargan yoki unda o‘z zimmasiga mulkiy majburiyat olganligi qayd etilgan shaxsga qaratiladi[3].

Fikrimizcha, qimmatli qog‘ozlar ham fuqarolik huquqining boshqa obyektlari kabi fuqarolik muomalasiga kiritiladi va turli fuqarolik-huquqiy shartnomalarning obyekti hisoblanadi. Xususan, qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomalarning hamda mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasining ham obyekti bo‘lishi mumkin. FKning 851-moddasiga binoan qimmatli qog‘ozlar mol-mulkni ishonchli boshqarish obyekti ham bo‘la oladi va bunda ularga nisbatan FKning umumiy qoidalari va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonun normalari tatbiq etiladi.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishning quyidagi xususiyatlari mavjud: ishonchli boshqarish obyektlari sifatida nafaqat qimmatli qog‘ozlar, balki qimmatli qog‘ozlarni investisiyalash uchun mo‘ljallangan pul, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog‘ozlar va pul ham hisoblanadi; qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshira oladigan shaxslar qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari bilan cheklangan[4]. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda qimmatli qog‘ozlarni boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish tartibi, boshqaruvchining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari va shartnomalarida belgilanishi bilan bog‘liq qoidalar ham o‘z aksini topgan.

Fuqarolik qonunchiligi (mol-mulkni ishonchli boshqarishni tartibga solish bilan bog‘liq huquqiy

[1] Назаров Ю.Б. Проблемы правового регулирования выпуска и обращения ценных бумаг в гражданском обороте. Автореф.дисс...докт.юрид. наук. – Ташкент: 2008. – с. 16.
[2] Гражданское право: Учеб.: В 3 т. Т.1. – 6-е изд., перераб. и доп. /Н.Д.Егоров, И.В.Елисеев и др.; Отв.ред. П.А.Сергеев, Ю.К.Толстой. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. – с. 265-266.
[3] Амонов З.А. Мулкий ҳуқуқлар фуқаролик ҳуқуқининг объекти сифатида: юрид. фан. номз. дис.... -Тошкент: 2011. – 67-б.
[4] Константинов Г.Л. Доверительное управление имуществом на рынке ценных бумаг в Российской Федерации (гражданско-правовой аспект): автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М.: 2013. – с. 5.

aktlar esa, albatta, fuqarolik qonunchiligiga bog‘liq) fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi Fuqarolik kodeksidan va unga muvofiq qabul qilingan boshqa qonunlardan iborat. Shu o‘rinda aytish mumkinki, FKning 851-moddasida ko‘rsatilganidek (“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonundan tashqari) qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishni huquqiy tartibga solishning xususiyatlarini belgilovchi qonun hujjatlari mavjud emas.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qator huquqiy hujjatlar mavjud. Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari shular jumlasidan. Ammo ushbu hujjatlar Fuqarolik kodeksiga va boshqa qonunlarga zid bo‘lmasligi lozim.

Biroq qonun hujjatlarida ko‘p uchrayotgan, qonunchilikda qabul qilingan shubhali (uning yuridik kuchi jihatidan) normativ hujjatlar “de facto” qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun mavjud holatni inobatga olib, qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishning xususiyatlari to‘g‘risidagi qonunni tayyorlash va qabul qilishni tezlashtirish haqidagi xulosa to‘g‘riroq ko‘rinadi.

Ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq boshqaruvchi o‘ziga boshqaruv muassisi bergan qimmatli qog‘ozlarni boshqarishdan yoxud bunday qimmatli qog‘ozlarni sotishdan tushgan mablag‘lar qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash mablag‘lari sifatida tan olinsa, bunday holatlar ham qonunchilik bilan maxsus tartibga solinadi.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish shartnomasini tuzishda ishonchli boshqaruvchining investitsiya deklaratsiyasi kabi masala ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikda belgilanishicha, qonunda nazarda tutilgan ishonchli boshqarish shartnomasi majburiy shartlaridan tashqari, qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash mablag‘larini ishonchli boshqarishga topshirish shartnomasi boshqaruv muassisining investitsiyalash mablag‘lari yo‘nalishi va usullarini nazarda tutuvchi boshqaruvchining investitsiya deklaratsiyasiga ham ega bo‘lishi kerak.

Investitsiya aktivlari ishonchli boshqaruvchisining investitsiya deklaratsiyasi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish shartnomasining uzviy qismi hisoblanadi. Investitsiya deklaratsiyasi qoidalari investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisiga shartnomaning boshqa qoidalari bilan bir xil asoslarda bajarish uchun majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, shartnomalarni tuzish boshqaruv muassisining investitsiya deklarasiyasida bayon qilingan qoidalar, shu jumladan, o‘ziga tegishli bo‘lgan pul deklaratsiyaga o‘tkazilgan har qanday investitsiya aktivlari – investitsiyalash obyektlarini investitsiyalashga roziligini bildiradi.

Ishonchli boshqaruvchining investittsiya deklaratsiyasida quyidagi ma’lumotlar nazarda tutilishi kerak: ishonchli boshqaruv maqsadini belgilash; boshqaruv muassisining pulini investitsiya qilish mumkin bo‘lgan obyektlar ro‘yxati, ya’ni boshqaruvchining boshqaruv muassisi mol-mulki tarkibiga kiruvchi qimmatli qog‘ozlarni qonuniy egallashi; shartnoma amal qiladigan butun muddat davomida investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi amal qilishi majbur bo‘lgan investitsiya aktivlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; mazkur investitsiya deklaratsiyasi qoidalari investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi uchun amal qiladigan va majburiy hisoblanadigan muddat.

Ko‘rinib turibdiki, ishonchli boshqaruvchining investitsiya deklaratsiyasi, agar taraflar buni xohlasa, ishonchli boshqarish shartnomasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ishonchli boshqarish shartnomasi matniga taraflar ishonchli boshqaruvchining investitsiya deklaratsiyasini ular tomonidan tuzilgan shartnomaning ajralmas qismi ekani haqidagi qoidani qayd etishi lozim. Ishonchli boshqarish shartnomasida bunday qoidaning mavjud emasligi, ishonchli boshqaruvchining investitsiya deklaratsiyasi ushbu shartnomaning tarkibiy qismi ekanini bildirmaydi, chunki bunda taraflar xohishi ko‘rsatilmagan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishga berish, xususan, investitsiyaviy qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiruvchi aksiyalar, obligatsiyalarni ishonchli boshqarishga topshirish muhim ahamiyatga ega. Biroq amaldagi qonunchilikda qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishga berish bo‘yicha qoidalar tizimi mavjud emas va bu boradagi normalar ayrim qonun hujjatlarida fragmentar tarzda ifodalangan. Jumladan, 2015-yil 3-iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘ri-

sida”gi qonunning 30-moddasida investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchining faoliyatiga oid qoidalar keltirilgan bo‘lib, unga binoan yuridik shaxsning – ishonchli boshqaruvchining o‘ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan:

– qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan, investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog‘ozlarni;

– qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pullarni shu shaxsning yoki u ko‘rsatgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, o‘z nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshirishi investitsiya aktivlarini boshqarish bo‘yicha faoliyatdir.

Shuningdek, mazkur qonunning 53-moddasi to‘rtinchi qismida belgilanishicha, emitent, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, o‘zi chiqargan aksiyalar bo‘yicha ularni qayta sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek, o‘zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga topshirishga haqli emas.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarishga berishga oid normalar “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida ham o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra ishonchli boshqaruvchi va investitsiya fondi o‘rtasida yoxud ishonchli boshqaruvchi va pay fondining investorlari o‘rtasida tuziladigan, ishonchli boshqarish chog‘idagi cheklovlar, haq to‘lash va xarajatlarni qoplash tartibi, shartnomaning amal qilishini tugatish asoslari va shartlari, taraflarning javobgarligi hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalarni nazarda tutadigan shartnoma ishonchli boshqarish shartnomasidir.

Ushbu normani tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi o‘ziga xos jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Shartnoma taraflari, ya’ni bir-biriga nisbatan kontragentlar sifatida:

a) ishonchli boshqaruvchi va investitsiya fondi;

b) ishonchli boshqaruvchi va pay fondining investorlari belgilangan.

Shartnomaning muhim shartlari sifatida quyidagilar belgilangan:

a) cheklovlar;

b) haq to‘lash va xarajatlarni qoplash tartibi;

v) shartnomaning amal qilishini tugatish asoslari va shartlari;

g) taraflarning javobgarligi.

Mazkur shartlar ro‘yxati ochiq qoldirilgan va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Boshqacha aytganda, investitsiya va pay fondlarini ishonchli boshqarish shartnomasining muhim shartlariga FKning 853-moddasida nazarda tutilgan shartlar ham kiritiladi. Yuqoridagi qonunning 9-moddasi birinchi qismida keltirilgan ishonchli boshqarish shartnomasining muhim shartlariga oid talablar esa maxsus qoidalar sifatida faqat investitsiya va pay fondlarini ishonchli boshqarishga berishda qo‘llanadi. Qimmatli qog‘ozlarni, xususan, investitsiya va pay fondlarini ishonchli boshqarishga berish shartnomasi amaldagi qonunchilikda qo‘shilish shartnomasi sifatida ifolanadi. Ya’ni mazkur shartnomaga nisbatan FKning 360-moddasi qo‘llanadi. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, shartlarini taraflardan biri formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta’riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin bo‘lgan shartnoma qo‘shilish shartnomasi deyiladi.

Ushbu holatda investitsiya va pay fondlarini ishonchli boshqarishga berish shartnomasi shartlari kim, ya’ni taraflardan qaysi biri tomonidan ishlab chiqiladi degan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, bu holatda shartnomaning shartlarini investitsiya va pay fondi tegishli standartlar asosida ishlab chiqishi lozim. Chunki ishonchli boshqarishdan maqsad mol-mulkni (bu holatda esa investitsiya va pay fondini) boshqaruv muassisi, yangi investitsiya va pay fondining manfaatlarini ko‘zlab boshqarish hisoblanadi.

Ishonchli boshqaruv ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi, ishonchli boshqaruvchining rahbari tomonidan ushbu shartnoma:

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga asosan investitsiya fondining kuzatuv kengashi raisi bilan;

shartnomani imzolash va unga qo‘shilish orqali pay fondining investorlari bilan tuziladi.

Investitsiya fondi bir vaqtning o‘zida bir nechta ishonchli boshqaruvchi bilan ishonchli boshqarish shartnomasini tuzishga yo‘l qo‘ymaydi. Ishonchli boshqarish shartnomasida uning ajralmas qismi

bo‘lgan va investitsiya aktivlarining tarkibiga nisbatan talablar qo‘yadigan investitsiya deklaratsiyasi bo‘lishi kerak.

Pay fondini ishonchli boshqarish shartnomasining amal qilish muddati besh yildan oshmasligi lozim. Agar investitsiya paylarining egalari o‘zlariga tegishli barcha investitsiya paylarini muomaladan chiqarishni talab qilmagan bo‘lsa, shartnomaning amal qilish muddati investitsiya paylari egalari umumiy yig‘ilishining qarori bilan bir yilga uzaytirilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-apreldagi 189-qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari to‘g‘risida”gi nizomning 2-bandiga ko‘ra, Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvga litsenziya olgan tijorat tashkilotlari, shuningdek, bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan tijorat banklari bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi u boshqaradigan investitsiya aktivlari o‘rtacha yillik qiymatining kamida 5 foizi miqdorida o‘z moddiy aktivlariga ega bo‘lishi kerak. Investitsiya aktivlari ishonchli boshqaruvchisining o‘z moddiy aktivlari miqdori va u boshqaradigan investitsiya aktivlarining sof aktivlari o‘rtacha yillik qiymati Moliya vazirligi bilan kelishuv bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi belgilagan tartibda aniqlanadi.

Investisiya va pay fondlari qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ularning hisobini yuritish hamda samarali va barqaror amal qilishi uchun tashkil etiladi. Odatda investitsiya fondi aksiyalarni chiqarish maqsadini ko‘zlasa, pay fondi investorlar tomonidan ishonchli boshqarish uchun taqdim etiladigan pul jamlanmasi sanaladi[5].

M.Plyushyev investitsiya va pay fondlarini mulkiy kompleks nuqtayi nazaridan tahlil etadi va fond paychilarning umumiy ulushli mulki hisoblanishini ta’kidlaydi[6]. Y.Yefimovaning fikricha, bu holatda paychilarda ulushga, ya’ni naqdsiz pul va hujjatsiz qimmatli qog‘ozlarga nisbatan mulk huquqi vujudga kelishi masalasi bahsli sanaladi[7].

Fikrimizcha, bu holatda paychilarning fonddagi ulushga nisbatan mulk huquqi emas, talab qilish huquqi mavjud bo‘ladi. Chunki fond aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilishi munosabati bilan hamda undagi paychilarning ulushi hissalarga ajratilgan qimmatli qog‘oz – aksiya hisoblangani sababli, uning egasida mulk huquqi emas, talab qilish huquqi mavjud bo‘ladi.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish shartnomasi tuzish qoidalarining umumiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlar va tegishli investitsiya mablag‘larini ishonchli boshqarish bilan bog‘liq faoliyat, qoida tariqasida, boshqaruv muassisi va ishonchli boshqaruvchi o‘rtasida tuziladigan yagona ishonchli boshqarish shartnomasiga asosan amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, taraflar bir qancha ishonchli boshqarish shartnomasini tuzishlari mumkin. Ushbu shartnomalardan biri aynan qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bo‘yicha faoliyatni tartibga solsa, ikkinchisi, ushbu boshqaruv muassisining qimmatli qog‘ozlarni investisiyalash mablag‘larini tartibga soladi.

Ikkinchi holatda qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash mablag‘larini ishonchli boshqarish bo‘yicha alohida shartnomaning tuzilishi FKning 851-moddasi ikkinchi qismi talablariga qanchalik mosligi masalasi kelib chiqadi. Ushbu normaga asosan pul ishonchli boshqarishning alohida obyekti bo‘la olmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ushbu savol ijobiy javobga ega emasligi sababli, fikrimizcha, bir huquqiy munosabatni bir necha alohida shartnomalar bilan rasmiylashtirish shart emas.

Qimmatli qog‘ozlar va investitsiya mablag‘larini ishonchli boshqarish shartnomasi boshqaruv muassisi qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqaruvchiga bergan paytdan e’tiboran tuzilgan hisoblanadi. Agar ishonchli boshqarish shartnomasida bir qancha qimmatli qog‘ozlarni boshqaruv muassisi ishonchli boshqaruvchiga turli muddatlarda (bosqichma-bosqich) berishi nazarda tutilgan bo‘lsa, shartnoma qimmatli qog‘ozlarning dastlabki paketi ishonchli boshqaruvchiga berilgan paytdan tuzilgan hisoblanadi. Aynan shu

[5] Лукьянченко Д.В. Паевые инвестиционные фонды в гражданских правоотношениях: дис. ... канд. юрид. наук. – М.: 2014. – 170 с.
[6] Плющев М.В. Правовая природа паевого инвестиционного фонда и инвестиционного пая: дис. ... канд. юрид. наук. – Ростов на Дону: 2005. – 207 с.
[7] Ефимова Ю.С. Паевой инвестиционный фонд в системе вещных и обязательственных отношений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Владивосток: 2019. – 6 с.

paytdan boshlab boshqaruvchining unga berilgan qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bo‘yicha huquq va majburiyatlari yuzaga keladi. Boshqa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha boshqaruv muassisining huquq va majburiyatlari ularni boshqaruv muassisi ishonchli boshqaruvga bergan paytdan vujudga keladi.

Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasining tabiati inobatga olinsa, ushbu shartnomaning kuchga kirishi bilan bog‘liq bunday yondashuv, FKning 365-moddasi ikkinchi qismiga zid kelmaydi. Unda belgilanishicha, qonunga muvofiq shartnomani tuzish uchun mol-mulk ishonchli boshqaruvga berilishi lozim va aynan shu paytdan shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Bunda izoh talab etiladigan holat shundaki, qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish shartnomasiga oid qoidalar qonun bilan tartibga solinishi ko‘rsatilgan bo‘lsada, amaliyotda bu qoidalar qonunda emas, balki idoraviy normativ hujjatlarda o‘z aksini topgan. Bunday hujjatlar umummajburiy xarakterga egaligi shubhalidir.



Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish shartnomasiga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarning investitsiya manbalari sifatida ishonchli boshqaruvchi tomonidan ishonchli boshqarish muassisining qarzdorlaridan undirilgan qarzlar natijasida olingan mablag‘lar tan olinadi. Birinchidan, talab huquqlaridan voz kechish to‘g‘risida bitim tuzilgan paytdan ishonchli boshqarish shartnomasi amal qiladi va ko‘rsatilgan bitimgi oid qismi taraflar uchungina majburiy hisoblanadi. Ikkinchidan, qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash mablag‘larini ishonchli boshqarish bilan bog‘liq taraflarga taalluqli huquq va majburiyatlarga doir qoidaga muvofiq, boshqaruvchi boshqarish muassisi qarzdorlaridan pul olganidan keyingina shartnoma amal qiladi.

Xullas, qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan, investisiya va pay fondlarini ishonchli boshqarishga berishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda bu borada amalda ishlaydigan izchil tizimni yaratish mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, daromad keltiradigan mol-mulk va qimmatli qog‘ozlardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Shu munosabat bilan “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi qonunga “Investitsiya pay fondlarini ishonchli boshqarishga topshirish”, “Investitsiya pay fondlarini ishonchli boshqarish shartnomasining amal qilish muddati”, “Investitsiya pay fondiga ishonchli boshqarishga beriladigan mol-mulk”, “Investitsiya pay fondi boshqaruv kompaniyasining javobgarligi”, “Investitsiya pay fondini ishonchli boshqarish qoidasi”, “Vakolatli davlat organida investitsiya pay fondini ishonchli boshqarish qoidasini va unga kiritiladigan o‘zgarish hamda qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish”, “Boshqaruv kompaniyasiga qo‘yiladigan talablar”, “Boshqaruv kompaniyasi muassisi (ishtirokchisi)ga qo‘yiladigan talablar”, “Boshqaruv kompaniyasining majburiyatlari”, “Boshqaruv kompaniyasi faoliyatidagi cheklovlar”, “Aksiyadorlik investitsiya fondi va investitsiya pay fondini ishonchli boshqarish uchun mukofot to‘lash va xarajatlar” kabi yangi moddalarni kiritish taklif etiladi.

Bahromjon TOPILDIYEV,
TDYU professori, yuridik fanlar doktori